

EKOLOGIK BARQARORLIKKA ERISHISHIDA CHIQINDILARGA DOIR

EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYANI TASKIL ETISH ZARURATI

Bahodirjon Omonov,

Qo'qon davlat pedagogika inistituti o'qituvchisi, p,f,f,d.(PhD)

E-mail: bahodiromonov33@gmail.com

Tel:91 324 92 00

Anotatsiya

Ushbu maqolada chiqindilarga doir ekologik ta'lim va tarbiyaning xalqaro va milliy ta'lim tizimi tahlil qilindi va maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining malakasini oshirishda «chiqindilar menejmenti» o'quv modulini tashkil etish zarurati ochib berildi.

Kalit so'zlar: ekologik muammo, tabiat markazlari, chiqindilar menejmet, xalqaro tajriba, ekologik konseptsiya, qiziqarli chiqindi.

Kirish

BMT tomonidan belgilangan barqaror rivojlanishning 2030 yilgacha bo'lgan maqsadi chiqindilarni boshqarishda tegishli sohalarga tizimli yondashish lozimligini takidlab o'tgan [4]. 2016 yildan 2050 yilgacha dunyoda jami chiqindi ikki baravar ko'payib, qariyb 2 milliarddan 4 milliard tonnagacha ko'payishi kutilmoqda [1]. Bu esa o'z navbatida insoniyat oldiga juda ham katta bo'lgan global miqyosdagi ekologik muammolarni yuzaga keltiradi[2]. Kam va o'rta daromadli mamlakatlarda ko'plab qattiq maishiy chiqindilar poligonlari havo, suv va tuproq ifloslanishiga va chiriyotgan chiqindi o'zidan metan, vodorod sulfid, uglerod oksidi kabi zaharli gazlarni ajratib issiqxona gazlarini ortib ketishiga hissa qo'shadi.

Tahlil va natijalar

Chiqindilar to'g'ri yig'ilmasa yoki utilizatsiya qilinmasa, oxir-oqibat ochiq poligonlarda chirishi mumkin bo'ladi bu yesa ko'plab antisanitariya sharoitlariga olib keladi. Bugungi jamiyat ilim fanining oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri aholining chiqindilarni saralab yigish bo'yicha ekologik ong va madaniyatini joriy qilishdan iborat. Chiqindilarni saralab yig'ish joriy qilingan ko'plab mamlakatlarda bu jarayon maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanar ekan.

Fransiya

Fransiyada ekologik ta'lim 1970-yillardan boshlab olib boriladi. 1993 yilda Atrof-muhit va Frantsiya Milliy ta'lim vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida shartnomada mamlakatning barqaror rivojlanishi har bir fuqaroning ekologik xavfsiz muhitda yashashi bilan chambarchas bog'liq ekanligi o'qtirilgan. Ekologik xavfsiz muhitga ta'sir etayotgan omillardan biri esa chiqindi va ularni oqilona boshqarish orqali aholining ekologik ongi va

madniyatini oshirish bilan uzviy bog'langanligi ta'kidlangan. Supermarketlarda bir martalik plastik qoplardan foydalanish taqiqlanadi. Fransuz xonadonlarida faqatgina ikki turdagi chiqindi savatlari mavjudligiga qaramay, ularni konteynerlarga olib borib tashlashda esa 5 xildagi idishlarga saralab yig'ishga ruxsat beriladi. XXIning ikkinchi o'nyilligiga kelib Fransiyaning janubiy-sharqiy qismdagi 7 ta rayon va 13 ta departamentlarida maishiy chiqindilarni turli xildagi konteynerlarga tashlashning pullik tizimi joriy qilindi. "Kim chiqindilarni qancha ko'p chiqarsa – shuncha ko'p pul to'laydi" printsipli asosida chiqindilarni boshqarish tizimi joriy qilingan. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim tizimidagi bolajonlarda ekologik ta'lim-tarbiya berishda aynan o'sha printsipga tegishli bo'lgan bilim va ko'nikmalarni hamda ma'naviyatini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Maxsus malka oshirish markazlarida korporativ boshqaruv rahbarlariga MTTda chiqindilar menejmenti o'quv rejasining majburiy blokiga kiritilgan. Hamda ushbu sohaga dahildor barcha hodimlarning malaksini uzliksiz ravishda oshirib borishga alohida etibor qaratiladi.

Finlyandiya

Jahon ekologik «Ekologik toza» davlatlar reytingining doimiy ravishda birinchi beshtaligidan joy olgan Finlyandiyaning Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chiqindilar menejmentiga dior tashkiliy ishlar mazmuni oddiydan-murakkabga, yaqindan-uzoqqa tomon ekologik ta'lim-tarbiyani tashkil etishga qaratilgandir. Ushbu davlatda maishiy chiqindilarning deyarli 93 foizi qata ishlanadi. Bunday natija aholining ekologik ong va madaniyatini maktabgacha ta'lim tizmidan boshlanayotgan-ligidandir.

Maktabgacha ta'lim rahbari ekologik, jumladan chiqindilarni boshqarishga oid o'quv jarayonini 3-5 yoshdagi bolalar uchun ta'lim muassassining o'zida tashkil etadi. Mazkur ta'lim-tarbiya har bir guruhda yaratilgan "Ekologik burchak"larda chiqindilarga doir didaktik o'yinlar uchun yaratilgan maket va modellastirilgan hamda media vositalari bilan ta'minlangan joylarda olib borish tashkil etilgan. Bog'cha hovlisidagi chiqindilarga doir ta'lim-tarbiya jarayoni ekologik yo'lakchalarda tashkil etilgan "Chiqindi ham bizga kerak!" mavzusidagi 5 xil rangdagi konteynerlar joylashgan hududda olib boriladi.

MTT rahbari 5-7 yoshli bolalarni esa har bir tuman, shahar yoki shaharchalarda maxsus takshil etilgan eng zamonaviy didaktik vositalar bilan ta'minlangan «Tabiat markazlari»da har oyda bir marotaba olib borishni yo'lga qo'yadi. Finlyandiyadagi bir qancha bolalar bog'chalari yashil bayroq ostida faoliyat yuritib, ekologik ta'limga katta e'tibor qaratmoqda. Bundan o'qituvchilar ko'pincha ular bilan o'rmonda sayr qilishadi, qushxonalar qurishadi, chiqindilardan turli xildagi o'yinchoqlar yasashadi. Finlandiyadagi bog'cha rahbarlari mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda bolalarni tabiat markazlariga olib borish va tabiat bilan tanishtirish, chiqindilarni saralab yig'ishga o'rgatishga qaratilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqadilar[8]. Xelsinkidagi shahar chiqindilarni saralash stantsiyasi aholining turli guruhlari hususan kichik yoshdagi bolalar uchun ta'sirchan ta'lim dasturini taklif etadi. Bu kursning

asosiy mavzulari barqaror iste'mol, fuqarolarning ekologik mas'uliyatli va atrofmuhitga faol munosabatini shakllantirish jarayoniga katta yordam beradi[3].

Shvetsiya

Shvetsiyada barqaror rivojlanishga erishishning asosiy shartlaridan biri qilib har bir shaxs va umuman jamiyatni ekologik madaniyatni rivojlantirish belgilab olingan. Shvetsiyada 1998 yil 1-avgustda maktabgacha ta'lim muassasalari rivojlantirish uchun kuchga kirgan O'quv dasturi sifatli ta'lim kafolati hisoblanadi va ushbu o'quv dasturida ekologik ta'lim tarbiyaga alohida e'tibor berilgan. Har bir Shvetsiyalik bolalar uchun yashash joyidan qat'i nazar, ekologik ta'lim bilan qamrab olinadi. Shvetsiyada hamma maktabgacha ta'lim muassasalarida bir xil o'quv dasturiga amal qiladi, ularning maqsadlari o'xshash. Shu bilan birga, ularga erishish yo'llari boshqacha bo'lishi mumkin. Yani bu maqsadga erishish yo'llari maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari tomonidan tashkil qilinadi. Shvetsiyada ekologik ta'lim tizimi uzluksiz: oila - maktabgacha ta'lim muassasalari - maktab - universitet – ish joyi. Ushbu mamlakatda bolalar maishiy chiqindilarni saralash bilan bog'liq ekologik ko'nikmalarni maktabgacha ta'lim muassasasida shakllantiriladi va chiqindilarni saralab yig'ishni o'rgatish bo'yicha dars haftada bir marta o'tkaziladi. Bolalarga chiqindilarni qanday qilib ajratish ko'rsatiladi: ulardan qaysi birini qayta ishlanishi mumkin, xavfli bo'lgan va yo'q qilinishi kerak bo'lgan chiqindilar haqida 5 yoshli Shved bolasida ekologik ko'nikma hosil bo'ladi[11].

Rossiya

Rossiya maktabgacha ta'limida ham chiqindilar menejmentiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib ushbu mamlakatda birqancha chiqindilar menejmentiga doir ekologik proektlar joriy qilingan. Masalan:

“Tabiat bizning uyimiz. Unda axlat kerak emas[6]!” proekti o'z oldiga maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolajonlarning maishiy chiqindilarni to'g'ri boshqarishga qaratilgan ekologik ong va madaniyatni rivojlantirish hamda maishiy chiqindilardan foydalanish; maishiy chiqindilar turlari va ularning xossalari haqida tushuncha berish; maishiy chiqindilarning inson hayoti va tirik organizmlar uchun xavfliligi haqida. Bolalarning er, suv, havo ifloslanishining asosiy manbalari, uning oqibatlari, ifloslanishning oldini olish choralari haqidagi bilim ko'nikma va malaksini shakllantiradi.

“Yosh ekolog” dasturi Bolalar bog'chasi uchun mavjud dasturlardan biri bo'lib u bolalarni tashqi dunyo bilan tanishtirish, uning doirasida maktabgacha yoshdagi bolalar tabiat, o'simliklar, hayvonlarning xilma-xilligi, mavsumiy hodisalar, tabiatdagi inson faoliyati natijasida hosil bo'layotgan chiqindilar haqida bilib oladilar. Dasturlar materiali o'qituvchini bolalarda tirik mavjudotlarga insonparvarlik munosabatini rivojlantirishga, tabiatga g'amxo'rlik qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiradi.

“Bolalar bog’chasida chiqindilarni alohida yig’ish!” proektidan ko’zlangan asosiy maqsad. Bolalarning chiqindilar manbalari, ularning tasnifi va yo’q qilish usullari haqidagi bilimlarini kengaytirish. Bolalar uchun maishiy chiqindilarni qayta ishlash mumkin bo’lgan bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishlari uchun sharoit yaratish. Bolalarning umumlashtirish, xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish. Ushbu jarayonlarni tashkil etish maktabgacha ta’lim muassasasi rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Yuqorida keltirib o’tilgan loyihalar doirasida Maktabgacha ta’lim muassasa rahbar va pedagog hodimlari malakasini oshirish maqsadida ikki hafta davomida ular o’z loyihalari bilan ishtirok etadilar va chiqindilarni alohida yig’ish amaliyoti bilan yaqindan tanishadilar[5].

Bundan tashqari Rossiyada qo’shimcha ekologik ta’lim markazlari mavjud bo’lib, ularda turli yoshdagi bolalar inson va tabiatning o’zaro ta’sirining jihatlarini kuzatishi va o’rganishi, atrofdagi tabiiy makonga sho’ng’ishi mumkin, bu esa ekologik fikrlash va ongni shakllantirishni ta’minlaydi. Ushbu ekologik talim markazlarida ota-onalar ham bo’lishi mumkin, bu esa dolzarb ekologik muammolarni hal qilishda birgalikda ishtirok etish imkonini beradi. Bolalarning atrof-muhitga qanday munosabatda bo’lishiga qarab, ota-onalar ham o’zlarining xatti-harakatlarini o’zgartiradilar, shu tarzda bir vaqtning o’zida ikki avlod tarbiyalanadi[9].

Germaniya

"Zamonaviy Germaniyada ekologik ta’lim ekologik ongni shakllantirish va tabiatni muhofaza qilish manfaatlariga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida tushuniladi, keng davlat va ma’muriy yordamga ega bo’lib, ta’lim sohasida ishonchli o’rinni egallaydi"[7].

1990-yilda Germaniyada chiqindilarni saralab yig’ish va qayta ishlash tizimini qayta qurish munosabati bilan ekologik ta’lim kontseptsiyasi qabul qilindi. Yangi ekologik ta’lim kontseptsiyasi ta’lim tizimida, turli xildagi ta’lim dasturlari, reklama, ommaviy axborot vositalari, orqali odamlar ekologik ong va madaniyatni rivojlantirildi. Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun maxsus dastur yo’q, lekin mahalliy sharoitdan kelib chiqib bolalar bilan ularning yoshiga mos keladigan maxsus darslar, aksiyalar, ekologik o’yinlar, "Axlatsiz yashang", "Biz va atrofimizdagi dunyo" dasturlari amalda joriy qilingan. Pedagoglar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etilib, chiqindilar mavzusiga oid o’quv adabiyotlari chop etilmoqda. Bu jarayonni tashkil qilish muassasa rahbari tarafidan amalga oshirish qat’iy belgilab qo’yilgan[10].

Xulosa

qilib aytganda respublikamiz aholisini ekologik ong va madaniyatini zamontalablariga mos ravishda oshiri borishda chet el tajribasidan foydalangan tarzda milliy ekologik talim dasturlarini ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Global Waste Management Outlook. United Nations Environment Programme, 2015; Marks, K. and Howden, D.
2. Omonov B. Bolalarga chiqindilarni saralab yig'ishni o'rgatish bugunning talabi G'G' Bola va Zamon jurnali G' № 4 G' 2021.B.64-65.
3. SOLDATOVA. V. Ekologicheskoe obrazovanie v Finlyandii na primere Prirodnogo parka «Xarakka» 02G'13G'2020
4. Doklad o Tselyax v oblasti ustoychivogo razvitiya, 2019 god
5. Ivanova I.E. Ekologicheskii proekt dlya detey mladshego doshkolnogo vozrast
6. Illarionovna. B. L. Ekologicheskii proekt «Priroda – nash dom. Musor ne nujen v nyom!».2019g
7. Kalinnikova M. V., Ivchenkov S. G. Sistema ekologicheskogo obrazovaniya v usloviyax globalizatsii G'G' Izvestiya Saratovskogo universiteta. Novaya seriya. Sotsiologiya. Politologiya. — 2012. — № 2. — S. 122.
8. Larionova E. V Finlyandii deti uchat roditeley sortirovat musor ekologiya 09,12,2019g
9. Musorno'e ekivoki: utilizatsii otxodov budut uchit v detsadax i shkolax Novosibirskie novosti 21 dekabrya 2021
10. Novikova.D.1sravnenie ekologicheskogo obrazovaniya v rossii, germanii, yaponii, finlyandii 2018g.
11. Taylakova E. A. VOSPITANIE EKOLOGICHESKOY KULTURO' DETEY I MOLODEJI V FINLYaNDII I ShVETsII. jurnal PEDAGOGIKA i PSIXOLOGIYa.